

Siyosiy Ongning Mohiyati Va Uni Siyosatshunoslikda O‘Rganishning Nazariy Asoslari

Bahodir Eshbekov

O‘zbekiston jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD

Annatsiya: Ushbu maqolada siyosiy ong tushunchasining mohiyati, shakllanish omillari hamda uni siyosatshunoslik fanida o‘rganishning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Siyosiy ongning individual va ommaviy darajadagi ifodalari, uning siyosiy madaniyat, siyosiy ishtirok va fuqarolik faolligi bilan o‘zaro bog‘liqligi ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy tafakkur, siyosiy ishtirok, siyosatshunoslik, siyosiy qadriyatlar, siyosiy muhit.

Kirish. Siyosiy jarayonlar tarixida siyosiy ong masalasi doimo muhokama markazida bo‘lib kelgan. Falsafiy nuqtai nazardan ongning turli shakllari qatori siyosiy ong ham jamiyat hayotining muhim ijtimoiy-psixologik hodisasi sanaladi. Siyosat tushunchasining kelib chiqishi murakkab bo‘lib, uning talqinlari turli davrlarda xilma-xil nazariy yondashuvlar bilan izohlangan. Davlatlarning paydo bo‘lishi, siyosiy munosabatlar shakllanishi bilan bog‘liq qarashlar ham tarix davomida ziddiyatli bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan.

Insoniyat qadimdan adolatli hukmdor va dono rahbar haqidagi orzularini xalq og‘zaki ijodida – maqol, rivoyat va dostonlarda ifoda etgan. Siyosiy tafakkurning ildizlari qadimgi sivilizatsiyalar — Sharq, Yunoniston va Rim manbalariga borib taqaladi. Bu esa siyosiy ong va madaniyatning tarixiy shakllanishidan dalolat beradi.

Siyosatshunoslikda “siyosat” atamasi yunoncha *politike* – “davlatni boshqarish san’ati” so‘zidan kelib chiqqan. U jamiyat va davlatni boshqarish, ijtimoiy guruhlar manfaatlarini uyg‘unlashtirish vositasi hisoblanadi. Siyosat turli shakllarda – milliy, demokratik, totalitar, xolis yoki noxolis siyosat tarzida namoyon bo‘ladi hamda jamiyat taraqqiyotiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Siyosatshunoslik esa siyosiy hokimiyat, siyosiy jarayonlar va boshqaruv qonuniyatlarini o‘rganadigan fan sifatida shakllangan. Uning ildizlari ibtidoiy jamiyatdagi boshqaruv tajribalaridan, qadimgi Sharq, Yunon va Rim siyosiy tizimlaridan boshlangan. “Avesto”, Xamurappi qonunlari, Aflotun va Arastu ta’limotlari, “Temur tuzuklari” kabi manbalar bu sohaning ilk nazariy asoslarini yaratgan.

Siyosatshunoslik dastlab siyosiy falsafa, sotsiologiya va tarix tarkibida o‘rganilgan bo‘lsa, XIX asr oxirlarida mustaqil fan sifatida shakllandi. AQSh va Yevropada siyosatshunoslik maktablari va ilmiy markazlar tashkil etildi. 1949 yilda BMT qoshida Siyosiy fanlar xalqaro uyushmasi tuzildi, bu esa fan sifatida siyosatshunoslikning global e’tirofini belgiladi.

O‘zbekistonda esa siyosatshunoslik mustaqillikdan so‘ng oliy ta’lim tizimiga kiritildi. Bugungi kunda siyosiy bilimlarni oshirish, yoshlarning siyosiy ongini shakllantirish va zamon talablari darajasiga ko‘tarish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib bormoqda.

Siyosat so‘zining Sharq, xususan, musulmon xalqlari tillaridagi kelib chiqishi arab tilidagi “**siyasa**” yoki “**siyasat**” so‘ziga borib taqaladi. Lug‘aviy ma’noda bu so‘z **jazolash, intizom o‘rnatish, hukmronlik qilish** ma’nolarini bildirgan. Ushbu talqinlar Alisher Navoiy asarlari va ularning izohli

lugʻatlarida ham uchraydi. Qadimda siyosat ijtimoiy intizomni saqlash vositasi sifatida **qoʻrqitish va majburlash** uslublariga asoslangan. Shuning uchun ham “siyosat”ning sharqona kelib chiqishi, uning amaliy mohiyatiga yaqinroq hisoblanadi.

Navoiy asarlarida “siyosat” tushunchasi **qatʻiyat, adolatsizlikka qarshi chora, irodani namoyish etish** maʼnosida talqin etilgan. U “Mahbub ul-qulub”, “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy” kabi asarlarida adolat va siyosatni uygʻun holda, lekin zarur hollarda qatʻiyat bilan amalga oshirish zarurligini taʼkidlaydi. Navoiy tafakkurida siyosat ilohiy tartib va adolat bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, bu **teokratik** qarashlarning ifodasidir.

Arab tilida “siyasa” soʻzi “S-V-S” ildizidan kelib chiqqan boʻlib, dastlab **ot va tuyalarni boshqarish, tarbiyalash** maʼnosida qoʻllanilgan. “Sais” — hayvonlarni jilovlovchi shaxs degan maʼnoni bildirgan. Majoziy jihatdan esa, bu insonlarni boshqarish, jamiyatdagi tartibni oʻrnatish sanʼatini anglatadi. Shunday qilib, “siyosat” — **asovlikni jilovlash, tartib oʻrnatish sanʼati** degan maʼnoda ishlatilgan.

Baʼzi talqinlarda “siyosat” soʻzining ildizi “yorugʻlik” yoki “ravshanlik” maʼnolarini, boshqasida esa “zukkolik” va “ayyorlik” maʼnolarini anglatadi. Bu maʼnolar ham boshqaruvdagi **aqllilik, mohirlik, strategik yondashuv** bilan bogʻliqdir. Shu boisdan “siyosat” atamasi arab va turkiy tillarda davlat boshqaruvining haqiqiy mohiyatiga yaqin boʻlgan mazmuni ifodalaydi.

Siyosiy ong va siyosiy madaniyat har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy munosabatlar tizimiga bogʻliq holda shakllanadi. Oʻzbek xalqining siyosiy tafakkuri ham adabiy, huquqiy va falsafiy merosida mujassamdir. Xalq ogʻzaki ijodi, masalan, “Bir odil podshoh boʻlsa, har kim sevgonin olsa” kabi satrlar xalq siyosiy ongining adolat va erkinlik haqidagi orzularini ifodalaydi.

Zamonaviy siyosatshunoslikda siyosiy ong masalasi bahsli mavzulardan biridir. A.A. Borisenkov taʼkidlaganidek, siyosiy ong — siyosiy bilim va madaniyatning asosiy manbaidir. U siyosiy bilimlarni **ilmiy va noilmiy (kundalik)** qismlarga ajratadi. Shu bilan birga, koʻplab siyosiy nazariyalar real hayotga toʻliq mos kelmaydi, chunki amaliy siyosat koʻpincha nazariy qarashlardan farq qiladi. Gyotening “Nazariya quruqdir, doʻstim, yashnar hayot daraxti” degan soʻzi bu tafovutni yaqqol ifodalaydi.

Shunday qilib, turli talqinlar asosida “siyosat” va “siyosiy ong” tushunchalari jamiyatdagi hokimiyat, adolat, boshqaruv va inson ongi oʻrtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalovchi koʻp qatlamli ijtimoiy hodisa sifatida namoyon boʻladi.

Siyosiy ong bu – fuqaro yoki fuqarolarning siyosat sohasida sezgilari, siyosiy muhit holatidan kayfiyati, bilimlari, baholari, bashoratlarining idrok qilish tizimi hisoblanadi. Siyosiy ong oʻz ichiga shaxsning sohadagi qarashlari, dunyoqarashi, tasavvurlari, tuygʻulari, eʼtiqodi, odamlarning hissiyotlari, kayfiyati, jamiyat hayot tarzini tashkil qilgan moddiy ashyolar va jamiyatda yuz berayotgan butun oʻzgarishlar tizimi boʻlib, bu bilimlar tizimi va baholar, alohida individlar, guruhlar, sinflar, tabaqalarning umumiy munosabatlarida sodir boʻlayotgan jarayonlar bilan uygʻunlashadi. Shu zaylda siyosiy ong siyosiy hayotni butun, yaxlit faoliyat yuritishini va taraqqiyotini taʼminlovchi asosiy elementi hisoblanadi.

Siyosiy ongni siyosiy jarayonlarning subyektiv ifodasi sifatida tavsiflash mumkin. Siyosiy ong, ommaviy siyosiy ong kategoriyasi A.Avtorxonov, V.P. Andreyev, S.S. Andreyev, G.A. Belov, K.S. Gadjiyev, G.T. Deligenskiy, Y.V. Irxin, M.V. Ilin, P.F. Draker, V.P. Makarenko, A.Y. Shutov, V.Y. Shpak, A.I. Djenusov, K.S. Gadjiyev, N.N. Bogomolova, L.Y. Gozmanlar singari tadqiqotchilar ishlarida chuqur oʻrganilgan boʻlib, ularda ayni tushuncha mafkuraviy va psixologik darajalardan tashkil topishi gʻoyasi ilgari suriladi. Siyosiy ongning mafkuraviy darajasida, siyosat abstrakt gʻoya yoki muayyan nazariy model, soddaroq qilib aytganda esa ideologik taʼlimot sifatida oʻz aksini topadi. Psixologik darajada esa siyosat, psixologik ustanovkalar, qadriyatlar, hissiyotlar va kayfiyat koʻrinishida namoyon boʻladi.

Siyosiy ong kategoriyasi A.Avtorxonov, V.P. Andreyev, S.S. Andreyev, G.A. Belov, K.S. Gadjiyev, G.T. Deligenskiy, Y.V. Irxin, M.V. Ilin, P.F. Draker, V.P. Makarenko, A.Y. Shutov, V.Y. Shpak, A.I.

Djenusov, N.N. Bogomolova, L.Y. Gozmanlar singari tadqiqotchilarishlarida chuqur o'rganilgan bo'lib, ulardaayni tushuncha mafkuraviy va psixologikdarajalardan tashkil topishi g'oyasi ilgari suriladi. Siyosiy ongning siyosiy xulq-atvor siyosiyqadriyatlar, siyosiy mentalitet va siyosiy identiklik bilan bog'liq nazariy jihatlar G.Blumer, YE.V. Veritneva, V.K. Vilyunas, M.V. Demin kabi yirik tadqiqotchilar ishlarida ilgari surilgan.Tadqiqot metodologiyasi Siyosiy ongni siyosiy jarayonlarning individual subyekti idrokida o'z ifodasini topuvchi mental hodisalar yig'indisi sifatida ta'riflash mumkin.

Siyosiy ong birgina individual tajribaning mahsuli emas. Zero, uning shakllanishida (unga ijtimoiy muhit, siyosiy munosabatlar, siyosiy konyunktura kabi qator omillar ham muhim o'rin tutadi) qolaversa, mazkur tushuncha individ ongida ro'y berayotgan ichki jarayonlar orqali siyosiy jarayonning individual subyektini tavsiflashga ham xizmat qiladi. Siyosiy ong tushunchasi siyosiy jarayonlarning murakkab subyektlarini ham tavsiflash imkonini beradi. Masalan, muayyan siyosiy tizimga u yoki bu siyosiy ong mos keladi degan qa'tiy fikrni ilgari surish mumkin emas. Ayni o'rinda siyosiy madaniyat tushunchasini qo'llash joiz. Shu ma'noda "siyosiy ong" tushunchasi "siyosiy madaniyat" kategoriyasiga nisbatan olinganda nisbatan subyektiv hodisani nazarda tutishi ma'lum bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, siyosiy ong tushunchasi qadriyatlar, psixologik ustanovkalar bilan bir qatorda, ularni qayta ishlashning psixologik mexanizmlari, bir so'z aytganda shaxsiy pozitsiyani izlash jarayonlarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Bu borada atrof-muhitning jiddiy ta'sirga ega ekanligini nazarda tutgan holda mazkur hodisaning individual xarakter kasb etishini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bundan kelib chiqqan holda "siyosiy ong" tushunchasini siyosiy jarayonlarning guruhli aktorli yoki boshqa murakkab subyektlarga nisbatan qo'llash bahsli sanaladi.

Siyosiy ong siyosiy xulq-atvor bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning shakllanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan siyosiy ong siyosiy xulq-atvorning elementi sifatida unga ma'no baxsh etgan holda, siyosiy jarayonlar subyektlari o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni yuzaga chiqaradi. Ayni mulohaza G.Blumer, YE.V.Veritneva, V.K.Vilyunas, M.V. Demin kabi yirik tadqiqotchilar ishlarida ilgari surilgan. Shunga muvofiq tarzda siyosiy ong insonning tashqi xulq-atvori, aniqrog'i, uning faoliyati va faollik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki siyosiy xulq sifatida tavsiflanadi. Siyosiy xulq-atvorni tahlil qilishda I.M.Slepenkov, Y.P.Averin, A.K.Markova, V.Odaynik – siyosiy faollik tushunchasiga alohida e'tibor qaratadilar. YE.Vyatr esa mazkur tahlil jarayonida siyosiy munosabatlar tushunchasini alohida ajratib ko'rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda, siyosiy xulq-atvorning individual siyosiy ta'sir (YE.V.Veritneva), ommaviy siyosiy ta'sir (M.M.Nazarov), stixiyali siyosiy xulq-atvor (A.P.Nazaretyan) hamda provatsion siyosiy ta'sir (M.S.Xaveshi) kabi turlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Yuqoridagi mulohazalar tahlilidan kelib chiqqan holda, siyosiy ongning bilishga yo'nalgan va motivatsion guruhlariga tavsiflanuvchi tarkibiy qismlarini farqlash mumkin. Siyosiy bilim, siyosiy hodisalar va siyosiy maslaklarga bo'lgan qiziqish kabilar siyosiy ongning bilishga yo'nalgan guruhiga kiruvchi tarkibiy qismlari hisoblanadi. Albatta, siyosiy ongning biror-bir elementini sof holda ajratib ko'rsatish, shuningdek, uni bilishga yo'nalgan yoki motivatsion guruhga qa'tiy mansub deb ta'kidlash birmuncha murakkab sanaladi. Har ikki guruhga kiruvchi elementlar bir-birlari bilan uzviy aloqador bo'lib, doimiy ravishda o'zaro bir-birlarini to'ldirib turadilar. Shu tariqa siyosiy maslak muayyan his-tuyg'ular, ehtiyojlar ta'sirida shakllanib, biror-bir siyosiy ustanovkaning asosi bo'lib xizmat qiladi. Siyosiy qadriyatlar siyosiy ongning muhim komponentlaridan biri sanaladi. "Siyosiy qadriyatlar tushunchasi S.S. Bubnovoy, R.Inglexart, Y.G. Kapustina, I.M. Klyamkina, N.I. Lapin kabi tadqiqotchilar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda siyosiy qadriyatlar fundamental mental shakllanish jarayoni", aniq vaziyat va obyekt bilan bog'liq bo'lmagan, asbtrakt ideallar hamda kishilarning ideal xulq-atvor modeli va ideal yakuniy maqsad haqidagi tasavvurlari sifatida ko'rib chiqiladi. Shu ma'noda qadriyatlar "yaxshi" va "yomon" tushunchalar orqali ifodalanuvchi ideal obyektarga berilgan zaruriy va muhim baho hisoblanadi. Qadriyatlar ijtimoiy tabiatda o'zining yaqqol ifodasini topuvchi individual ong tavsifi hisoblanadi. Boshqacha ifoda etganda, siyosiy qadriyatlar — shaxsiy qiziqishlar va konkret vaziyatlar ta'sirida individ tomonidan o'zlashtirilib, shaxsiy tajriba orqali moslashtirilgan jamoaviy-ijtimoiy tasavvurlar tizimidir. Bu

tasavvurlash shaxs tomonidan ijtimoiylashish jarayonida o'zlashtirilib, natijada konkret siyosiy munosabatlar shakllanadi. Qadriyatlar insonning ideal obyekt yoki obyektlar jamlanmasi haqidagi tasavvurlaridir. Masalan, muayyan siyosiy partiya yoki so'z erkinligi haqidagi kishilar tasavvurlari ana shunday qadriyatlar sirasiga kiradi.

Qadriyatlar esa ustanovkalar sifatida insonlarning konkret obyektga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Albatta, bunday bo'linish shartli hisoblanadi. Bundan tashqari qadriyatlar konkret siyosiy ustanovkalarining shakllanishiga jiddiy ko'rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda, ularni ustanovkalarining elementi sifatida tavsiflash mumkin. Siyosiy qadriyatlar birgalikda baholaniladigan hodisalar qatoriga siyosiy ustanovkalar (YE.Y. Meleshkina, G.V. Golosov, Uznadze D.N.), siyosiy qarashlar (L.Sanisteban), siyosiy mo'ljallalar (V.V.Lapkin, V.I.Pantin), siyosiy stereotiplar (R.A. Zobov, V.N. Kelasyev) va siyosiy miflarni (I.M. Chudinova) kiritish mumkin. Siyosiy ustanovkalar insonning ichki va tashqi axloqining o'zaro ta'sirlashuvi jarayonida hal qiluvchi o'rin tutadi. U inson faoliyatining obyekti, boshlang'ich nuqtasi hamda harakatining kayfiyati sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga siyosiy ustanovkalarining shakllanishida ijtimoiy muhit jiddiy ta'sirga ega. Shu ma'noda siyosiy ustanovkalar ijtimoiy aloqalar tuzilmasiga qamrab olinish tuyg'usi, ijtimoiy muhitga yaqinlik, xavfsizlik, o'zlikni anglash va o'zlikni namoyon qilishga intilish kabi chuqur ijtimoiy shartlangan motivatsion ehtiyojlarning ifodasi bo'lib xizmat qiladi.

YE.Y. Meleshkin fikriga ko'ra, harakatning ehtiyojlari va motivlarini qayta shakllantirish ustanovkaning muhim funksiyasi hisoblanadi. Bu ustanovkaning baholash va mo'ljal olish funksiyasi deb ham atalib, u kishilarning o'tmishdagi tajribalari asosida vaziyatlar va tashqi obyektlarga nisbatan reaksiya bildirish qobiliyatini shakllantiradi. Ustanovka vaziyat va obyektga adekvat tarzda psixik jarayonlar va amaliy harakatlarni yuzaga keltiradi. Chunki ustanovkada oldingi vaziyat va mazkur jarayonlar hamda harakatlarning tayyor "modeli" mujassamlashgan bo'ladi. Ustanovkaning yana bir funksiyasi nafaqat ruhiyatning chuqur ongsizlik qatlamida vujudga kelgan ehtiyojlarning to'laligicha predmetlashtirish, balki ularni amaliy jihatdan nisbiy mustaqil ehtiyojlar va motivatsiyalarga aylantirish bilan bog'liq.

Postsovet mamlakatlari fuqarolarining siyosiy ustanovkalarni tavsiflashda quyidagilarga alohida diqqat qaratish talab qilinadi: o'tmish tajribasiga tayangan holda hokimiyat tuzilmalariga yuksak talablar qo'yish, ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot yakunlaridan yuqori darajada qoniqmaslik. Mazkur xususiyatlar aksariyat postsovet mamlakatlari fuqarolarining siyosiy ustanovkalariga xos bo'lib, nafaqat konkret siyosiy kuchlarga nisbatan munosabatda, balki demokratik institutlar va tamoyillarni qabul qilishda ham salbiy aks ta'sir ko'rsatadi. "Siyosiy ong" tushunchasi "siyosiy identiklik" kategoriyasi bilan ham uzviy aloqadorlik kasb etgan holda u "siyosiy ong"ning mahsuli hisoblanadi. Shu bilan birgalikda siyosiy identiklikning shakllanishida siyosiy makon tuzilmasi va uning dimanikasi singari obyektiv omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda siyosiy identiklik siyosiy ong xususiyatlarining shakllanishida ham muhim o'rin tutadi. Shundan kelib chiqqan holda, muayyan sharoitlarda siyosiy identiklikka siyosiy ongning elementi sifatida qaralishi mumkin.

Siyosiy identiklik individning tashqi xulq-atvori shakllanishida jiddiy rol o'ynaydi. Shu tariqa siyosiy identiklik ta'sirida individ yoki guruh siyosiy munosabatlar va siyosiy jarayonlarning subyektiga aylanib boradi. Siyosiy identiklik ham ijtimoiy identiklik singari jamoaviy xarakter kasb etadi. "U biror-bir guruh, jumladan, partiya, mafkuraviy oqimga mansublik hissi yoki ayni guruh orqali shaxs o'z siyosiy maslagini muayyan siyosiy pozitsiya bilan aynanlashtirishi hamda bularning barchasi siyosiy jarayonlarning" boshqa obyektlari tomonidan tan olinishida namoyon bo'ladi. Siyosiy jarayonlarning boshqa obyektlari tomonidan tan olinish deganda, shaxsning partiyalararo kurashda g'alaba qozongan hamda hukumatni shakllantiruvchi potensial partiya vakili ekanligini ko'rsatish orqali o'zini o'zi identifikatsiyalashitushuniladi.

Siyosiy identiklik va identifikatsiyalash, legitimlik va legitiqlashtirish tushunchalari bilan ham uzviy aloqador hisoblanadi. Unga ko'ra identiklik yoki identifikatsiya tushunchalari o'z mazmunida shaxs tanlagan muayyan pozitsiyasining siyosiy munosabatlarning boshqa obyektlari tomonidan

qonuniy ravishda tan olinishini ham nazarda tutadi. YE.G. Morozova, A.N. Suprunlar o'z tadqiqotlarida siyosiy identiklikning xilma-xil turlarini ajratib ko'rsatadilar.

L.Y. Gozmanning fikriga ko'ra, muayyan guruh doirasidagi identiklikni guruh manfaatlari, partiyalar, mafkuraviy oqimlar a'zolarining identikligi, shahar yoki mintaqada yashovchi kishilarning identikligi, davlat fuqarosining identikligi kabi turlarga ajratish mumkin. Shuni nazarda tutgan holda, muayyan shaxsda yuqoridagi tasnifga kirgan identiklik turlarining o'zaro sintetik tarzda namoyon bo'lishini ham kuzatish mumkin.

Siyosiy ongning tahlil etish o'z navbatida siyosiy mentalitet kategoriyasiga ham murojaat etishni taqozo qiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, siyosiy fanlar doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda siyosiy mentalitet kategoriyasining ham xilma-xil talqinlarini uchratish mumkin. Siyosiy mentalitet kategoriyasi YE.Anufriyev, L.Lesnaya, I.V. Gerasimov, G.A. Chuprina, YE.V. Surovsevlar kabi tadqiqotchilar ishlarida chuqur tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlarda siyosiy mentalitet tushunchasining quyidagi talqinlarini kuzatish mumkin: "bunga ko'ra siyosiy mentalitet muayyan ijtimoiy hamjamiyatda amal qiluvchi tasavvurlar va e'tiqodlar yig'indisi; shuningdek, u muayyan ijtimoiy guruh yoki uning alohida subyektlari tomonidan atrof-muhitning qabullanishiga oid ustanovkalar jamlanmasi hamda u "jamoaviy ongsizlik" konstruktiv hisoblanadi.

Siyosiy mentalitet kategoriyasini tushunishda "dunyoning siyosiy manzarasi" va "siyosiy ong" tushunchalarining mazmuniga ham murojaat qilish talab qilinadi. "Dunyoning siyosiy manzarasi" ham kundalik tajribadan kelib chiquvchi hamda nazariy darajadagi bilimlar, shuningdek, siyosiy subyektlarning qadriyatli mo'ljallarini o'z ichiga qamrab oladi. Siyosiy ong esa nafaqat ilmiy-nazariy bilimlar tizimi, balki kundalik hayotni kuzatish natijasida hosil bo'lgan tasavvurlarni ham o'zida aks ettiradi. Shu ma'noda siyosiy mentalitet ham kundalik tajriba bilan uzviy aloqador bo'lib, u o'z ichiga siyosiy voqelik haqidagi tasavvurlar, anglangan va anglanmagan darajalardagi siyosiy qadriyatli mo'ljallar, siyosiy vaziyatlarga nisbatan munosabatlarni shakllantiruvchi siyosiy ustanovkalarni qamrab oladi. Siyosiy qiziqish va siyosiy bilim tushunchalari o'rtasida ham muayyan farqlar mavjud. Qiziqishlar qisman siyosiy bilimlarga bog'liq bo'ladi. Ayni paytda siyosiy qiziqishlar yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun turtki vazifasini bajaradi. Yangi bilimlarni o'zlashtirish, o'z navbatida, ro'y berayotgan joriy siyosiy o'zgarishlarni ongda adekvat tarzda aks ettirish, ularga moslashish va siyosiy qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish qobiliyatini oshiradi. Kundalik siyosiy ong va mafkura sinfiy manfaatlar bilan bog'liq bo'lib, u har doim ham barqarorlik hamda izchillik xususiyatlarini kasb etmaydi. Agar siyosiy mafkura tom ma'noda muayyan sinfning tub mafaatlarga yo'nalgan bo'lsa, u holda kundalik siyosiy ong sinf ichidagi manfaatlarining differensiyalashuvini (o'zaro bir-biridan farqlanishi) aks ettiradi. Shu ma'noda kundalik siyosiy ong nisbatan differensiallashgan plastik xarakter kasb etadi. "Shuning bilan birgalikda kundalik siyosiy ongning shakllanishiga nafaqat o'zlashtirilgan kundalik tajriba va ijtimoiy siyosiy vaziyat balki muayyan aholi qatlamining turmush tarzi bilan bog'liq an'ana, urf-odat va qadriyatlar" ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ommaning tajribasi, uning siyosiy faoliyatdagi ishtiroki, shuningdek, mazkur faoliyat amalga oshirilgan shart-sharoit ham kundalik siyosiy ong shakllanishidagi muhim omillardan sanaladi. Jamiyatdagi kundalik siyosiy ong holatiga modernizatsiya sharoitidagi muvaffaqiyatsiz iqtisodiy islohotlar ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. "Natijada esa siyosiy ongning o'zida, turli aholi qatlamlarining ijtimoiy-siyosiy tasavvurlari, qarashlari, ustanovkalari, qadriyatlari tizimida o'zgarishlar yuz beradi". Qolaversa, ommaning siyosiy tajribasi ham kundalik siyosiy ong holatiga ta'sir o'tkazuvchi muhim omillardan hisoblanadi. O'z navbatida ushbu tajriba intensiv tarzda o'sib borгани holda, o'zida ijobiy va salbiy jihatlarni namoyon qiladi. Ijobiy jihatlarga qatoriga o'zgarishlarga intilish istagi, ochiqlik, oshkorlik hamda siyosiy aksiyalarda ishtirok etish kabilarni kiritish mumkin. Salbiy jihatlarning sifatida esa yangi illyuziyalarning shakllanishi, populizm, oxkokariya, sun'iy dushmanlar obrazini yaratishga intilish, ijtimoiy demagogiya ta'sirining kuchayishi singarilarni sanab o'tish mumkin. Omma siyosiy faolligining oshishi, ularning siyosiy hayotdagi ishtirokining kuchayishi mazkur jarayondagi muhim xususiyat hisoblanadi.

Mazkur tajriba esa siyosiy ongning ijobiy tomonga o'zgarishi va yuksalishiga olib keladi. Konformizm, avtoritarizm hamda muvozanat kabi siyosiy ongning o'nlab asrlar mobaynida,

xususan, turg'unlik yillarida shakllangan tub ildizlari siyosiy amaliyotda bu jarayonga to'sqinlik qiluvchi omillar hisoblanadi. Odatda siyosiy sohadagi o'zgarishlar avtoritar rejimlarning barham topib demokratik boshqaruv tizimiga o'tilgan davrlarda yuz beradi. Mazkur o'tish jarayonida siyosiy munosabatlarning insonparvarlashib ommaning siyosiy faoliyatidan begonalashuvi jarayonlarini yengib o'tish bilan parallel ravishda kechadi. "Kundalik siyosiy ong muayyan axloq normalari va mafkuradan chekinish shaklidagi ijtimoiy hayot hodisalariga nisbatan keskin reaksiya sifatida namoyon bo'ladi".

Xususan, mazkur reaksiya jamoatchilik kayfiyatida yaqqol aks etadi. Jamoatchilik kayfiyati siyosiy ongning eng tez o'zgaruvchan beqaror elementi hisoblanadi. Shuningdek, iqtisodiy qiyinchiliklar, siyosiy va milliy ruhdagi inqirozlar ham jamoatchilik kayfiyatining shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, **siyosiy ong** jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettiruvchi va uni yo'naltiruvchi murakkab hodisadir. U individual va ommaviy darajada namoyon bo'lib, siyosiy bilim, qadriyat, qiziqish, xulq-atvor, mentalitet va identiklik kabi tarkibiy qismlar o'zaro uzviy aloqada shakllanadi.

Siyosiy ongni tadqiq etish ko'p fanli — siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, falsafa va madaniyatshunoslik yondashuvlarini talab qiladi. Shaxsning siyosiy ongi siyosiy muhit, tarbiya, ta'lim, ommaviy axborot vositalari hamda jamiyatdagi siyosiy ishtirok darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Siyosiy ong — umumijtimoiy ongning muhim qismi bo'lib, u fuqaroning siyosiy tizim, davlat hokimiyati va siyosiy institutlar haqidagi bilimlari, munosabatlari, e'tiqodlari va faoliyatida namoyon bo'ladi. U siyosiy faollikni, fuqarolik pozitsiyasini, siyosiy madaniyat darajasini ham belgilaydi.

Shunday qilib, siyosiy ongning rivojlanishi fuqarolarning siyosiy ishtiroki, siyosiy ta'lim sifati va jamiyatdagi demokratik muhit darajasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u siyosiy jarayonlarning barqarorligi va istiqbolini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR :

1. Qo'lyiyev B.T. *Siyosiy ong va siyosiy madaniyatning shakllanish masalalari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
2. Usmanova Z.B. *O'quvchi yoshlarda siyosiy-huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda OAVning o'rni*. – "Ijtimoiy fikr" jurnali, №2, 2021.
3. To'laganova G. *Siyosiy madaniyat va fuqarolik ongining rivojlanish omillari*. – Toshkent: Fan, 2017.
4. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
6. Huntington S. *Political Order in Changing Societies*. – New Haven: Yale University Press, 1968.
7. Easton D. *A Systems Analysis of Political Life*. – Chicago: University of Chicago Press, 1965.
8. Almond G., Verba S. *The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations*. – Princeton: Princeton University Press, 1963.